

MARKAZIY OSIYODA O'RTA ASRLARDA TASAVVUFNING JAMIYATDAGI O'RNI VA BOSHQARUVDA NAMOYON BO'LISHI

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Bozorov Muhammad

Markaziy Osiyo hududi o'rta asrlarda o'zining madaniy, ilmiy va dini rivojlanishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda tasavvuf (sufizm) jamiyatda muhim o'rin egalladi va nafaqat shaxsiy ruhiy hayotda, balki siyosiy boshqaruvda ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Tasavvuf orqali inson qalbi poklanib, axloqiy kamolotga erishish maqsadi ustuvor bo'ldi, bu esa jamiyatning ijtimoiy tartibi va boshqaruv tizimiga ham ta'sir qildi. Ushbu tezisdagi tasavvufning Markaziy Osiyoda o'rta asrlardagi jamiyatdagi o'rni, uning boshqaruv tizimidagi roli va jamiyatga ta'siri keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlari: Markaziy Osiyo, tasavvuf (sufizm), din, jamiyat, boshqaruv, shaxs, ruhiy birdamlik, axloq, komillik, qalb poklash, bosqaruv, ijtimoi boshqaruv, siyosiy boshqaruv.

1. Tasavvuf tushunchasi va uning diniy-ijtimoiy asoslari.

Tasavvuf — bu Islom dinining ichki, ruhiy tarafini o'rganuvchi harakat bo'lib, u inson qalbini poklash va Allohga yaqinlashishga qaratilgan. O'rta asrlarda tasavvuf diniy hayotning ajralmas qismiga aylangan, ayniqsa Markaziy Osiyoda bu harakat ko'plab sufiy tariqatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Tasavvuf ta'limoti islom dini tarixida o'ziga xos va ajralib turadigan hodisa sifatida e'tirof etiladi. U oddiy diniy ta'limot sifatida emas, balki murakkab va ko'p qirrali diniy-falsafiy va ijtimoiy ta'limot sifatida shakllangan. Tasavvuf insonning ichki dunyosini, ruhiy olamini, ma'naviy kamolot yo'llarini chuqur o'rganuvchi ta'limot sifatida jahon

falsafasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu ta’limot asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, boy falsafiy mazmun kasb etib, o‘zining metodologik asoslarini yaratgan.

2. Markaziy Osiyoda tasavvufiy oqimlar va ularning xususiyatlari.

Hududda eng mashhur bo‘lgan tasavvufiy tariqatlar qatorida Naqshbandiya, Kubroviya, Yasaviyya va boshqa tariqatlar mavjud edi. Bu tariqatlar o‘z shayxlari va murshidlari orqali keng xalq qatlamlariga ma’rifiy, axloqiy va diniy ta’limotlarni yetkazdilar. Ayniqsa Naqshbandiya tariqati boshqalar orasida boshqaruv va siyosatga yaqinligi bilan ajralib turardi.

3. Ruhiy va axloqiy hayotdagi roli.

Tasavvuf jamiyatda ruhiy ma’naviyatni shakllantirdi. U kishilar qalbini poklab, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, haqiqatga erishish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va mehr-oqibat tamoyillarini targ‘ib qildi. Natijada, jamiyatda ijtimoiy birlik va tinchlikni ta’minlashga xizmat qildi.

4. Ta’lim va ma’rifat markazlari sifatida tasavvufiy muassasalar.

Tasavvufiy manzillar va takkalar ilm-fan va diniy ma’rifat markazlariga aylangan. Bu joylarda nafaqat diniy bilimlar, balki falsafa, tarix, adabiyot kabi fanlar ham o‘rgatilgan. Shu tariqa, tasavvuf jamiyatning madaniy rivojlanishida ham muhim omil bo‘ldi. Najmiddin Komilovning tasavvufni mukammal bir diniy-falsafiy ta’limot sifatida tadqiq etishlari doirasiga tasavvufning falsafiy jihatlari ham kiradi. Tasavvufning falsafiy ko‘rinishga ega bo‘lishi, uning fikriy-aqidaviy tuzilishida yangi falsafiy fikr va g‘oyalarning vujudga kelishi tasavvuf ta’limotining yangi bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Professor N.Komilovning ta’kidlashicha, ushbu davrda olam va inson haqidagi fikrlar, masalan, Muhammad G‘azzoliy, Farididdin Attor, Najmiddin Kubro, Ibn al-Arabiy, Mavlono Jaloliddin Rumi, Aziziddin Nasafiy va boshqa mutafakkirlar tomonidan falsafiy-irfoniy usullar orqali ishlab chiqilgan

5. Ijtimoiy birdamlik va adolat tamoyillari

Tasavvufiy shayxlar va murshidlar jamiyatda adolat, tenglik va mehr-oqibat tamoyillarini targʻib qildi. Ular kambagʻallar, zaiflar himoyasida boʻlib, ijtimoiy notenglikka qarshi turdi. Bu esa jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy muvozanatini mustahkamladi. Tasavvuf taʼlimotining mohiyati va uning falsafiy jihatlarini tadqiq qilish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu taʼlimot inson ruhiyati, maʼnaviyati va axloqiy kamoloti masalalariga javob beruvchi tizim sifatida qimmatlidir. Shu bois ham tasavvufning diniy-falsafiy taʼlimot sifatidagi metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tasavvuf falsafasining metodologik asoslarini, uning diniy falsafiy taʼlimot sifatidagi mohiyatini va rivojlanish bosqichlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

6. Hukmdorlar va tasavvuf ulamolarining hamkorligi

Markaziy Osiyo hukmdorlari tasavvuf shayxlarini siyosiy va maʼnaviy maslahatchilar sifatida yuqori qadrlagan. Ular shayxlarning barokati va diniy taʼsiridan foydalanib, oʻz hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan. Koʻplab shayxlar siyosiy masalalarda maslahat berish, jamiyatni boshqarishda vositachilik qilish funksiyasini bajargan.

7. Tasavvufiy doiralar va siyosiy boshqaruvning axloqiy asoslari

Tasavvufiy taʼlimotlar hukmdorlar va boshqaruvchilarni adolatli, halol va insonparvar boʻlishga chaqirdi. Bu taʼlimotlar siyosatga axloqiy va diniy meʼyorlarni kiritish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qildi.

8. Boshqaruvda vositachilik roli

Tasavvuf shayxlari koʻpincha xalqlar va hukmdorlar oʻrtasida vositachilik qilib, nizolarni hal qilishda, tinchlikni saqlashda faol ishtirok etgan. Ular jamiyatdagi turli

qatlamlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda katta rol o'ynadi. Bunga Temuriyzodalar saroyida shahzodalar o'rtasidagi nizolarda Xo'ja Ahror Valiyning aktiv harakatda bo'lgani ham bir misol bo'la oladi.

9. Axloqiy me'yorlarning kuchayishi

Tasavvufning ta'limotlari boshqaruv tizimida axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga yordam berdi. Bu nafaqat hukmdorlar, balki oddiy fuqarolarning ham jamiyatga bo'lgan munosabatini yaxshiladi. Temur va uning vorislari ichidagi yuksak axloqli insonlar va Shayboniyxon va uning avlodlari ichidagi yuksak fazilatli rahbarlarni bunga misol qila olamiz.

10. Ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy birdamlik

Tasavvuf jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytirib, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi nizolarni kamaytirdi. Shu bilan birga, tasavvufiy qadriyatlar jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

11. Madaniy meros va ilmiy taraqqiyot

Tasavvuf markazlari madaniy merosning saqlanishi va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishiga xizmat qildi. Ko'plab shoirlar, mutafakkirlar, olimlar tasavvuf ta'limotlari orqali ijod qilib, Markaziy Osiyo madaniyatining boyligini oshirdi.

Tasavvufning bosh manbalarini belgilash masalasida N.Komilov aniq pozitsiyani egallaydi. Uning nazarida tasavvuf ta'limotining bosh manbalari quyidagilardan iborat:
1. Qur'oni karim va Payg'ambar Sunnati. N.Komilov tasavvufiy g'oyalarning asoslarini Islomning muqaddas matnlaridan olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Qur'on va Sunnat tasavvufiy amaliyotlarning asosiy prinsiplarini belgilaydi

Ilk so'fiylarning ko'rsatmalari va g'oyalari, tasavvuf nazariyotchilarining ilmiy-adabiy asarlari. Tasavvuf tarixida muhim o'rin tutgan ilk so'fiylarning so'zlari va

ko'rsatmalari, so'fiy shoirlar va mutafakkirlarning asarlari ham asosiy manba hisoblanadi. Masalan, Hakim at-Termiziy, Mustamliy Buxoriy, Abo'said Abulxayr, Xoja Abdulloh Ansoriy, Xoja Abdulqodir Geloniy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Muhammad al-G'azzoliy, Shayx Fariduddin Attor, Ibn al-Arabiy, Mavlono Jaloliddin Balxiy Rumiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlarining ilmiy-adabiy asarlari tasavvufiy fikrlar va g'oyalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Islomiy falsafa. Islom falsafasi, ayniqsa, Islom ilohiyotshunosligi– Kalom ilmi maktablari hamda ratsional falsafa– Mashoiyun va Tabiiyun maktablari ham tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan. N.Komilov bu falsafiy ta'limotlarning tasavvuf bilan aloqadorligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy va madaniy kontekst. Tasavvufning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga ham bog'liq. N.Komilov tasavvuf ta'limotining o'zgarishlariga ta'sir yetkazgan ijtimoiy va madaniy omillarni ham o'rganadi.

Xulosa: Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda tasavvuf nafaqat diniy-ma'rifiy harakat sifatida, balki jamiyat va boshqaruvda muhim institut sifatida shakllandi. Tasavvuf jamiyatda ruhiy kamolot, axloqiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni targ'ib qildi, shu bilan birga siyosiy boshqaruvda hukmdorlar bilan hamkorlik qilib, davlat barqarorligini ta'minlashda faol rol o'ynadi. Tasavvufiy shayxlar vositachilik qilib, jamiyatdagi nizolarni kamaytirish va ijtimoiy muvozanatni saqlashda muhim vosita bo'ldi. Shunday qilib, tasavvuf o'rta asr Markaziy Osiyo jamiyatining ajralmas qismiga aylangan.